

STEREOTIPLARNING TALABALARNING O‘Z IMKONIYATLARINI ANGLASHIGA TA’SIRI VA O‘Z-O‘ZINI PLAGIAT QILISH MUAMMOSI

Oripova Dilafruz Oybek qizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali Masofaviy ta‘lim psixologiya 25_05 talabasi

Email: dilafruzoripova940@mail.com

Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o‘g‘li

“Kompyuter Injiniring va raqamli texnologiyalar” kafedrasi o‘qituvchisi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Email: xalimjonov1234@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda stereotiplarning shakllanish jarayoni, ularning ijobiy va salbiy jihatlari, talabalarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishida tutgan o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta‘lim va ilmiy sohada dolzarb bo‘lib qolayotgan o‘z-o‘zini plagiat qilish muammosi ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: stereotip, talaba, imkoniyat, qaror qabul qilish, o‘z-o‘zini plagiat, ilmiy axloq.

KIRISH

Stereotiplar — insonning ongida jamiyat, oila va ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadigan barqaror tasavvurlar bo‘lib, ular hayotiy tajribamizni tezkor tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, stereotiplar ko‘plab hollarda shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq anglashiga to‘sqinlik qiladi. Ayniqsa, talabalar yoshida stereotipik qarashlar shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik va mustaqil qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda yana bir dolzarb muammo — o‘z-o‘zini plagiat qilishdir. Ilmiy faoliyatning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan mualliflik mas‘uliyatiga zid ravishda, ayrim yosh tadqiqotchilar o‘z avvalgi ishlari yoki mavjud materiallardan qayta foydalanishni afzal ko‘rishmoqda. Bu esa nafaqat ilmiy halollikka, balki jamiyatda intellektual rivojlanish jarayonlariga ham zarar yetkazadi.

ASOSIY QISM

1. Stereotiplarning shakllanishi va talabalarga ta‘siri

Stereotiplar odatda oilada shakllanadi. Inson ota-onasidan dunyoga qanday qarashni, qaysi tomonlarga ko‘proq e‘tibor qaratishni o‘rganadi. Talabalik davrida stereotiplar nafaqat oilaviy muhit, balki ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va atrof-muhit orqali yanada mustahkamlanadi. Masalan, talaba yangi shaharda yordam so‘rashga majbur bo‘lgan vaziyatda salbiy stereotiplar ta‘sirida “bashang kiyingan

odam yordam bermaydi” yoki “oddiy odamdan foyda yo‘q” degan xulosaga kelib, real imkoniyatni boy berishi mumkin.

2. Stereotiplarning ijtimoiy va psixologik oqibatlari

Qaror qabul qilish jarayonida insonlar vaziyatni to‘liq tahlil qilmasdan, stereotipik yondashuvdan foydalanishi mumkin. Hatoy tajribali mutaxassislar ham (sudya, prokuror, pedagoglar) qaror chiqarishda ilgari shakllangan tasavvurlarga tayangan hollari kuzatiladi. Masalan, garov miqdorini belgilashda sudyalarda ko‘pincha mavjud huquqiy omillarni chuqur tahlil qilishdan ko‘ra, boshqa mutasaddilarning fikriga asoslanib qaror qabul qilishi mumkin.

3. Stereotiplarning ta‘lim jarayonidagi ko‘rinishlari

Taniqli universitetlarda o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, obro‘li shaxsning oddiy bayonoti talabalar bilimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Ikki guruh talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan tajribada, birinchi guruh qattiq tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsa, ikkinchi guruhga obro‘li shaxs “imtihondan tashvishlanmang” deb aytgan. Natijada birinchi guruh a‘lo natijalarga erishgan, ikkinchi guruh esa past ball olgan. Bu misol jamiyatimizda keng tarqalgan “obro‘li odam aytsa — bu haqiqat” stereotipi qanday ishlashini ko‘rsatadi.

4. O‘z-o‘zini plagiat qilish muammosi

O‘z-o‘zini plagiat qilish — muallifning avvalgi asarlari, g‘oyalari yoki matnidan izohsiz va yangilik kiritmasdan qayta foydalanishi. Bu holat jamiyatda “tezroq natijaga erishish”, “qisqa yo‘l bilan muvaffaqiyatga chiqish” kabi stereotiplar bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida (149-modda) mualliflik huquqlarini buzish uchun jarima yoki jinoiy javobgarlik belgilangan. Talabalar va yosh olimlar o‘z ijodiy mehnatining qadriga yetishi, milliy va jahon adabiyotidan, klassik yozuvchilardan ilhom olib, yangi asarlar yaratishi lozim.

Xulosa

Stereotiplar inson ongida tabiiy ravishda shakllansa-da, ularning salbiy ta‘siri talabalar o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga to‘sqinlik qiladi. Talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, stereotiplarni ongli ravishda yengishga o‘rgatish, ijtimoiy muhitda mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish ta‘lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Ilmiy faoliyatda esa o‘z-o‘zini plagiat qilishga yo‘l qo‘ymaslik, shaxsiy yondashuv va ijodiy fikrni rivojlantirish orqali intellektual muhitni mustahkamlash zarur. Mustaqil fikrlaydigan, stereotiplarning salbiy ta‘sirini yengib, ijodiy yondashuvni tanlagan talabalargina o‘z imkoniyatlarini to‘liq anglab, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Steele, C. M. (1997). A threat in the air: How stereotypes shape intellectual identity and performance. *American Psychologist*, 52(6), 613–629.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 19-aprel, PQ–5080-son.
3. Defo, D. (2020). *Robinzon Kruzo*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Karimov, I. A. (1996). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Nurmonov, A., & Jo‘rayev, A. (2019). Ilmiy plagiat va uning oqibatlari. *O‘zbekiston oliy ta’limi jurnali*, 2(4), 55–62.